

MNEMOTEXNIKANING ZAMONAVIY METODIKA SIFATIDAGI O'RNI

Ishchanova Sohiba Shokirovna

Hazorasp tumani 3 son DMTT direktori

Dilura Atamuratova Sultonboyevna

Hazorasp tumani 13 son DMTT direktori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6896525>

Annotatsiya. Mnemonika - sun'iy assotsiatsiyalar hosil qilish yo'li bilan esda olib qolishni osonlashtiruvchi va xotira hajmini kengaytiruvchi usullar tizimi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning eslab qolish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodlar xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: mnemonika, mnemotexnika, metod, usul, vosita.

РОЛЬ МНЕМОТЕХНИКИ КАК СОВРЕМЕННОЙ МЕТОДИКИ

Аннотация. Мнемоника — это система приемов, облегчающих припоминание и расширяющих память за счет создания искусственных ассоциаций. В данной статье рассказывается о методах, направленных на развитие способности к запоминанию у дошкольников.

Ключевые слова: мнемоника, мнемотехника, метод, метод, инструмент.

THE ROLE OF MNEMONICS AS A MODERN TECHNIQUE

Abstract. Mnemonics is a system of techniques that facilitate recall and expand memory by creating artificial associations. This article describes methods aimed at developing the ability to memorize in preschoolers.

Keywords: mnemonics, mnemonics, method, method, tool.

KIRISH

Zamonaviy hayotda bolalar juda katta hajmdagi ma'lumotlarni qabul qilayaptilar. Bolajonlar smartfonlar, planshetlar va kompyuterlardan juda yaxshi foydalanadilar. Ammo zarur bilimlarni xotirada saqlab qolish uchun har doim ko'p axborotni qabul qilish to'g'ri yechim bo'la olmaydi. Bolalarni o'z vaqtida axborotlarga nisbatan immunitet bilan o'stirish maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Mnemotexnika usuli esa bolalarda xotirani rivojlantirishga, ularda eslab qolish qobiliyatini rivojlantirisha juda ham qo'l keladi. Yaxshi xotiraga ega bo'lish bolaning bilimlarni oson o'zlashtirishiga, yangiliklarni tez qabul qilishiga zamin yaratadi.

TADQIQOT NATIJALARI

Mnemotexnika usuli bolaning rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Xotira, diqqat, tasavvur qila olish qobiliyati rivojlanadi;

Nutqi rivojlanadi, so'z boyligi ortadi;

Atrof-olam haqidagi tasavvurlari kengayadi;

Aqliy va hissiy rivojlanish o'sadi;

Mnemotexnika usulini qo'llash mobaynida bolalardagi tortinchoqlik, tengdoshlariga qo'shila olmaslik kabi jihatlarni yo'qotish mumkin;

Mnemotexnika miyaning ikkita yarim shari bir vaqtida ishlashini ta'minlaydi;

Bolalarda ijodkorlik qobiliyati shakllanadi.

MUHOKAMA

“Obrazli eslab qolish”

Misol uchun uning maktabgacha ta’lim tashkilotidagi shkafchasiiga kemachaning surati yopishtirilgan. Endi u kemacha suratidagi shkaf o’ziga tegishlilagini, uning ichidagi kiyimlar va poyafzal ham o’ziniki ekanligini anglaydi. U o’qishni bilmasa ham kemacha suratli javon oldida to’xtaydi va o’ziga kerakli narsalarni oladi.

“O’zing ijod qil”

Yana bir qiziqarli usul. Bolaga kvadratga shakliga joylangan to’rtta bir-biriga bog’liq bo’lmagan surat ko’rsatiladi. Har bir kvadratdagi rasm bitta so’zni ifodalaydi. Tasvirlarga tayangan holda bola rasm chizishi kerak.

“Zanjir”

Ushbu yodlash texnikasining mohiyati tasvirlarni bir-biri bilan bog’lashdir. Pedagog 4 ta bir-biriga mantiqan bog’langan suratni bolalarga ko’rsatadi va ularni keyin berkitib qo’yadi. Bolalar suratlarda nima tasvirlanganini adashmasdan qayta hiqokya qilib berishlari kerak.

“Kasblar”

Pedagog 4 ta kasb egasining suratini ko’rsatadi. Keyin esa insonlarni kim davolaydi deb so’raydi. Bolalar uning savoliga javob beradilar. Navbat bilan tarbiyachi qolgan kasb egalari kim kiyim tikadi, kim bolalarga dars beradi, kim qo’riqlaydi kabi savollar beradi.

“Solishtirib ko’r”

Pedagog ikkita mushukchaning suratini ko’rsatadi. Bolalar ularning o’xshash va farqli jihatlarini topib tahlil qilib berishlari kerak. Misol uchun, mushukchaning bittasi onasi u jigarrangda, baland ovozda miyovlaydi, ikkinchi mushukcha esa bolasi. U past ovozda miyovlaydi. Uning kattaligi onasinkidan kichikroq kabi.

“O’zing hikoya tuz”

Pedagog bolalarga birorta so’z aytadi. Misol uchun hayvonot bog’ida. Bolalar ana shu ibora ishtirokida o’z hikoyalarini tuzishlari va uni gapirib berishlari kerak. Kimning hikoyasi qiziqarli bo’lsa ana o’sha bola g’olib deb topiladi.

“Qaysi faslda?”

Bolalarga ayiqpolvonning yozda o’tloqda turgani va qishda uyquga ketgani tasvirlangan surat ko’rsatiladi. Bolalar esa ayiqpolvon qaysi fasllarda yashayotganini aytib, o’sha faslg'i oid tabiat o’zgarishlarini ham tahlil qilib berishlari kerak.

XULOSA

Aslida xotiraning rivojlanishiga uyqu, oziq-ovqat, oiladagi muhit kabi bir qancha ichki va tashqi omillar ta’sir ko’rsatadi. Mnemotexnika usulida bola obrazli eslab qoladi.

REFERENCES

1. Ganiyeva, M. (2021). Effective Methods of TRIZ.
2. Maftuna, G. (2021). Effective ways to Use Triz (The Theory of Inventive Problem Solving).
3. G.A. Kalyujin., M.P.Deryugina. «Yorgakdan maktabgacha» -Toshkent «Oqituvchi» - 1988 y
4. T. Usmonxojaeva. F.Xojaev. Ming bir o’yin -Toshkent Ibn Sino nashriyoti-1990
5. O.Otavalieva. Bola tarbiyasida bogcha va oila hamkorligi. Oqituvchi 1994 y.
6. V.G.Negacheva, T.A.Markova. Bolalar bogchasida ahloqiy tarbiya. Oqituvchi - 1990
7. Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash tayanch-sinov dasturi. Toshkent -1998y